



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAkatINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanov Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIVAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	



RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Madaminov Bekzod Allayarovich

Ma'mun universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i,
fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), v.b. professor
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-2806-691X>

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini boshqarish bilan bog'liq dolzarb masalalar yoritilgan. Muallif tomonidan risk-menejment va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning konseptual modelini shakllantirish tamoyillari bayon etilgan hamda mazkur model doirasida axborot oqimlari nazariy jihatdan talqin qilingan. Tadqiqot natijalari risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali banklarning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlarini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kapitallashuv, likvidlik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmi, risk darajasini kamaytirish.

Abstract. The article addresses current issues related to managing the financial stability of commercial banks. The author outlines the principles for developing a conceptual model of the relationship between risk management and financial stability and provides a theoretical interpretation of information flows within this model. The findings substantiate the importance of improving risk management mechanisms to ensure the sustainable development of banks.

Key words: commercial banks, financial stability, capitalization, liquidity enhancement, lending mechanism, risk reduction.

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы управления финансовой устойчивостью коммерческих банков. Автором представлены принципы формирования концептуальной модели взаимосвязи между управлением рисками и финансовой устойчивостью, а также теоретически интерпретированы информационные потоки в рамках данной модели. Результаты исследования обосновывают возможности укрепления устойчивого развития банков посредством совершенствования механизмов управления рисками.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, капитализация, повышение уровня ликвидности, механизм кредитования, снижение уровня риска.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirish, unda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kapitallashuv va likvidlik darajasini oshirish borasida amalga oshirilgan izchil islohotlar natijasida muhim ijobiy yutuqlarga erishildi. Xususan, ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti va moliya bozorlariga sezilarli bosim ko'rsatgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida respublika bank-moliya tizimining barqaror faoliyat yuritishi, jumladan, tijorat banklari kapitallashuvi va likvidligining barqaror saqlanishi olib borilgan tizimli islohotlarning amaliy samarasi sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekistonda jadal islohotlar sharoitida moliya tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan tijorat banklarining samarali va barqaror faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish hamda pul-kredit siyosatini izchil va samarali amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-iyundagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3066-sonli qarori'da iqtisodiyotning barcha sohalarida bo'lgani

1 <https://lex.uz/uz/docs/-3246038>



kabi tijorat banklarini boshqarish tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda ularning faoliyati barqarorligini xalqaro standartlar darajasida ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga qadar bank risk-menejmenti hamda uni takomillashtirish masalalari mahalliy va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Jumladan, tijorat banklari faoliyatida menejment tamoyillari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlar V.M. Usoskin [1], D.J. Siynki [2], Y.F. Jukova [3], U. Kox Timoti [4], I.V. Larionova [5] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining faoliyati, ularning vazifalari hamda bank tizimi rivojlanishini boshqarishning ayrim nazariy va amaliy jihatlar, shuningdek, ushbu tizimda yuzaga keladigan dolzarb masalalar iqtisodchi olimlar B.T. Berdiyarov [6], V.A. Kotov [7], I.L. Butikov, N.X. Jumaev [8], O.B. Sattarov [9], O.Q. Abduraxmanov, R.T. Tursunov, R.R. Tojievlarining [10] ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Milliy bank tizimida bank marketingi hamda boshqaruv jarayonlarida moliyaviy menejmentni qo'llashning nazariy va metodologik asoslari A.Sh. Bekmurodov, B.Z. Mustafayev, B.K. Mirzamaydinov, M. Nasritdinova, M.M. Abduraxmanova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Shu bilan birga, mamlakatimiz tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning kompleks nazariy va amaliy yo'nalishlari yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Mazkur ilmiy izlanishda aynan ushbu masalalarni tizimli ravishda o'rganish, nazariy yondashuvlarni takomillashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda esa bank risk-menejmenti tizimini takomillashtirishda korporativ boshqaruv, kapital yetarliligi, likvidlikni boshqarish hamda prudensial nazorat mexanizmlarining o'rni alohida ta'kidlanadi. Xususan, Basel qo'mitasi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan risklarni baholash va monitoring qilish tizimlari bank barqarorligini ta'minlashning muhim institutsional vositasi sifatida qaraladi. So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda stress-testlash, kredit portfelini diversifikatsiyalash va raqamli risk-monitoring platformalarini joriy etishning samaradorligi keng muhokama qilinmoqda.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish va "big data" texnologiyalarini bank risk-menejmenti tizimiga integratsiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli tahlil vositalari kredit xatarlarini aniqlash aniqligini oshiradi, operatsion risklarni erta bosqichda prognozlash imkonini beradi hamda qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Shu jihatdan, innovatsion yondashuvlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik omil sifatida e'tirof etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda risk-menejment va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur anglash hamda ularning konseptual modelini shakllantirish maqsadida tizimli nazariy tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu yondashuv tadqiqot obyektini alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi yaxlit iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan risk-menejment mexanizmlari, moliyaviy resurslar harakati, xavflarni baholash instrumentlari va barqarorlik ko'rsatkichlari o'zaro integratsiyalashgan elementlar sifatida tahlil qilindi. Bunda har bir elementning funksiyasi, o'zaro aloqadorligi hamda umumiy tizim natijasiga ta'siri mantiqiy-tahliliy usullar orqali asoslab berildi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni komparativ tahlil qilish, abstraksiya va sintez usullari yordamida risk-menejment hamda moliyaviy barqarorlik tushunchalarining nazariy asoslari umumlashtirildi va ular o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari konseptual jihatdan modellashtirildi. Natijada mazkur yondashuv risklarni boshqarish tizimining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi strategik rolini aniqlash, tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi. Shu tariqa tizimli nazariy tahlil tadqiqot metodologiyasining asosiy ilmiy-instrumental poydevori sifatida xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Komplekslik va ko'p darajalilik tamoyili miqdoriy ko'rsatkichlar (moliyaviy metrikalar, kapital yetarliligi va likvidlik koeffitsiyentlari) bilan bir qatorda sifat omillarini (risklarni boshqarish jarayonlarining sifati, xodimlar kompetensiyasi, boshqaruv samaradorligi) ham uyg'un holda ko'rib chiqishni talab etadi. Moliyaviy barqarorlik faqat ijobiy raqamli ko'rsatkichlar bilan emas, balki ularni qo'llab-quvvatlovchi samarali boshqaruv jarayonlari va institutsional mexanizmlar orqali ta'minlanadi. Shu bois risk-menejment tizimining mukammalligi bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.



Preventivlik va adaptivlik tamoyili mavjud risklarga faqat reaktiv javob berish bilan cheklanmay, balki potensial tahdidlarni oldindan aniqlash va ularning ta'sirini minimallashtirish zaruratini aks ettiradi [11]. Zamonaviy bank tizimida bu yondashuv stress-testlash, ssenariy modellash va prognozlash vositalari orqali amalga oshiriladi. Natijada banklar tashqi iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga tezkor moslashish, likvidlik va kapital pozitsiyalarini optimal darajada saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Axborot yetarliligi va qayta aloqa tamoyili risklarni boshqarish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda sifatli axborotning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlaydi [12]. Model bankning axborot-analitik infratuzilmasiga integratsiyalashgan bo'lishi, aniq va o'z vaqtida ma'lumotlar oqimini ta'minlashi hamda real vaqt rejimida strategiyani moslashtirish imkonini beruvchi yopiq qayta aloqa konturlarini shakllantirishi zarur. Bu esa qaror qabul qilish jarayonining tezkorligi va asoslanganligini oshirib, umumiy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi (1-jadval).

1-jadval. Risk-menejment va moliyaviy barqarorlik o'zaro bog'liqligining konseptual modelini shakllantirish tamoyillari

Tamoyil	Mazmuni	Amaliy qo'llanishi
Tizimlilik va ierarxiyaviylik	Bankni ko'p darajali risklarni boshqarish tuzilmasiga ega yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish	Risk-appetit va limitlarni bank darajasidan bo'linmalargacha kaskadlash; ierarxiyaning turli darajalarida risklarni integratsiyalash
Komplekslik va ko'p darajalilik	Miqdoriy va sifat yondashuvlaridan birgalikda foydalanish	Moliyaviy koeffitsiyentlarni risklarni boshqarish jarayonlari sifatini baholari bilan uyg'unlashtirish; CAMELS tahlili va yetuklik matritsalaridan foydalanish
Preventivlik va adaptivlik	Risklarni proaktiv aniqlash va tezkor moslashish imkoniyati	Muntazam stress-testlar, ssenariy tahlili, asosiy risk indikatorlari (KRI) tizimi
Axborot yetarliligi	Aniq va o'z vaqtida axborotga kirishni ta'minlash	Integratsiyalashgan ma'lumotlar tizimi, yagona risk-tahlil platformasi, standartlashtirilgan hisobot
Qayta aloqa	Boshqaruv qarorlarini tuzatish uchun yopiq konturlar	Rejadan og'ishlarni monitoring qilish, muammolarni eskalatsiya qilish tizimi, boshqaruv strategiyasini davriy qayta ko'rib chiqish

Risk-menejment va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi konseptual model uchta asosiy konturdan iborat: kirish parametrlari, tizimning faoliyat mexanizmlarini o'z ichiga olgan ichki kontur hamda erishilgan moliyaviy barqarorlik darajasini tavsiflovchi chiqish parametrlari.

Modelning kirish parametrlari bank faoliyat yuritayotgan tashqi muhitni aks ettiradi va uning risk profilini belgilaydi. Birinchi element — tashqi makroiqtisodiy muhit bo'lib, unga YAIM o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, valyuta kurslari, ishsizlik darajasi va boshqa makroiqtisodiy indikatorlar kiradi. Ikkinchi element — regulyator talablari bo'lib, ular kapitalga qo'yiladigan talablarni (Basel III, jumladan CRR3 va CRD komponentlari), likvidlik ko'rsatkichlarini (LCR, NSFR), operatsion risklarni boshqarish talablari, axborot oshkoraligi (Pillar 3) hamda markaziy banklar tomonidan belgilanadigan milliy talablarni, har bir yurisdiksiya xususiyatlarini inobatga olgan holda qamrab oladi. Uchinchi element — raqobat muhiti bo'lib, u bankning rivojlanish imkoniyatlari, mahsulot va xizmatlar narxlash modellari hamda bozor pozitsiyasining umumiy dinamikasini belgilaydi.

Kredit riskini boshqarish ko'pgina tijorat banklari uchun ustuvor funksiyadir, chunki kredit portfeli odatda bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etadi va daromadlarning bosh manbai hisoblanadi. Kredit riski — bu qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmaslik ehtimoli. Ushbu riskni samarali boshqarish aniq kredit siyosatini ishlab chiqish, qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholash (probability of default modellari asosida), portfelni tarmoqlar va kredit turlari bo'yicha diversifikatsiya qilish, yirik kreditlar bo'yicha konsentratsiya limitlarini belgilash, portfel sifatini doimiy monitoring qilish va ehtimoliy yo'qotishlar uchun o'z vaqtida rezervlar shakllantirishni o'z ichiga oladi. Kredit riskini adekvat boshqarish kapital yetarliligiga (Basel III talablariga muvofiq kapital rezervlash orqali) va aktivlar sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bozor riskini boshqarish foiz stavkalari, valyuta kurslari, qimmatli qog'ozlar va tovarlar narxlaridagi o'zgarishlarning bank aktivlari va passivlari qiymatiga ta'siri bilan bog'liq [15]. Zamonaviy pul-kredit siyosati sharoitida foiz va valyuta bozorlaridagi o'zgaruvchanlikning oshishi ushbu riskning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Samarali boshqaruv VaR va boshqa miqdoriy baholash usullaridan foydalanish, aktiv va passivlarni muddatlar hamda valyutalar bo'yicha muvofiqlashtirish (ALM), portfel dyuratsiyasini boshqarish, xedjirlash instrumentlaridan foydalanish va ekstremal bozor o'zgarishlari bo'yicha stress-testlashni qamrab oladi.

Risk-menejmentning bank kapitalizatsiyasi va likvidligiga ta'siri shundan iboratki, sifatli risk boshqaruvi kapital tuzilmasini optimallashtirish va moliyalashtirishda risk uchun talab etiladigan mukofotni kamaytirishga



xizmat qiladi. Risklarni samarali boshqaruvchi banklar reyting agentliklari tomonidan yuqori baholanadi, depozitlar va qarz mablag'larini yanada qulay shartlarda jalb etadi hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkam saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu bog'liqlik quyidagi iqtisodiy formula orqali ifodalanadi:

$$C = r_f + \beta \cdot (r_m - r_f) + \text{risk},$$

Bu yerda r_f — risksiz stavka, β — tizimli risk (beta) koeffitsiyenti, $(r_m - r_f)$ — bozor risk mukofoti, risk esa bankka xos risk mukofotini anglatadi. Risk-menejmentni takomillashtirish risk ko'rsatkichini kamaytirishga xizmat qiladi va natijada kapital qiymatining pasayishiga, moliyalashtirish shartlarining yaxshilanishiga olib keladi. Likvidlik nuqtayi nazaridan esa, samarali risk-menejment depozit bazasining barqarorligini mustahkamlaydi hamda stress davrlarida banklararo moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ilmiy adabiyotlarda proaktiv va reaktiv risk-menejment o'rtasidagi yondashuvlar keng muhokama qilinadi. Reaktiv yondashuv yuzaga kelgan yo'qotishlarga javob choralarini ko'rishga asoslangan bo'lsa, proaktiv yondashuv risklarni oldindan aniqlash, profilaktik choralarini ko'rish va stress-testlash mexanizmlarini qo'llashga tayanadi. Zamonaviy regulyator amaliyoti va ilg'or boshqaruv tajribalari aynan proaktiv yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, bu ICAAP va stress-testlash talablari doirasida yaqqol namoyon bo'lmoqda [16]. Proaktiv risk-menejment dastlab muayyan investitsiyalarni talab etsa-da, uzoq muddatda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va kutilmagan tebranishlarga tayyorgarlik darajasini oshirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Risk-menejment va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama xususiyatga ega. Ya'ni, samarali risklarni boshqarish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlasa, yetarli darajadagi moliyaviy barqarorlik ham risk-menejment tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Moliyaviy barqarorlik risklarni boshqarish sifatini oshirish uchun muhim resurs sifatida namoyon bo'ladi. Kapital va likvidlik bo'yicha mustahkam pozitsiyaga ega bank o'z moliyaviy barqarorligiga zarar yetkazmagan holda risk-menejmentning tahliliy va texnologik imkoniyatlarini rivojlantirishga investitsiya kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yetarli foyda darajasiga ega bank risk-menejment sohasida yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishi, risklarni prognozlashda mashinaviy o'rganishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanishi, shuningdek, murakkab ssenariy tahlillari va stress-testlarni amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari, moliyaviy jihatdan barqaror bank daromadlarni haddan tashqari risklar hisobiga tezkor oshirish zaruratida bo'lmaganligi sababli, muvozanatli va ehtiyotkor risk-appetitni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Moliyaviy barqarorlikning risk-menejment uchun mo'ljallangan tahliliy va raqamli vositalarga investitsiyalarga ta'siri risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish, risk-ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish platformalarini rivojlantirish, erta ogohlantirish tizimlarini shakllantirish hamda modellashtirish instrumentlariga ajratiladigan byudjetning kengayishi orqali namoyon bo'ladi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlik va foyda o'sishi davrlarida banklar risklarni boshqarish funksiyalarini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirgan. Natijada, keyingi stress davrlarida ushbu banklar zamonaviy tahliliy infratuzilma tufayli yanada yuqori tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan [17].

Mazkur konseptual modelning o'zini-o'zi qo'llab-quvvatlovchi xususiyati unda tavsiflangan jarayonlarning o'zaro kuchaytiruvchi tabiati bilan izohlanadi. Agar tizim to'g'ri loyihalangan va doimiy monitoring asosida boshqarilsa, moliyaviy barqarorlik risk-menejmentga investitsiyalarni rag'batlantiradi, risk-menejmentning takomillashuvi esa barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu mexanizm doimiy e'tibor va faol boshqaruvni talab etadi. Tizimli monitoring va boshqaruvning sustlashuvi ijobiy dinamikani sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun risk-menejment va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni uzluksiz qo'llab-quvvatlash strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Konseptual modelni tijorat banklari xususiyatlariga moslashtirish moslashuvchan va differensial yondashuvni talab qiladi. Bunda risk-menejment tizimining murakkablik darajasi bankning hajmi, faoliyat ko'lam, operatsion murakkabligi hamda risk profiliga muvofiq shakllantirilishi lozim. Kichik banklar soddalashtirilgan modellarni qo'llashi mumkin, biroq risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilishning asosiy funksiyalari to'liq saqlanishi zarur. Maxsus faoliyat yo'nalishiga ega banklar (masalan, islom banklari) xalqaro ishonchlilik standartlariga rioya qilgan holda o'z biznes modeliga moslashtirilgan risk-boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishlari maqsadga muvofiqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlar banklari ma'lumotlar bazasi va texnologik infratuzilma cheklangan sharoitda muqobil baholash va monitoring usullarini bosqichma-bosqich joriy etishlari lozim. Risk-menejmentni takomillashtirish jarayoni avvalo bankning mavjud institutsional yetuklik darajasini baholashdan boshlanib, keyinchalik ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash asosida amalga oshirilishi zarur.



Tijorat banklarida risk-menejment va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy-metodologik tahlili bir qator muhim xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Avvalo, samarali risk-menejment bank barqarorligining fundamental omili hisoblanadi. Ayrim davrlarda kapital yetarliligi, likvidlik yoki foyda ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishi mumkin, biroq risklarni boshqarish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, ushbu natijalarning barqarorligi uzoq muddatli istiqbolda ta'minlanmasligi mumkin. Xalqaro moliyaviy tajriba shuni ko'rsatadiki, mustahkam risk-menejment tizimiga ega banklar turli iqtisodiy tebranishlarga nisbatan yuqori moslashuvchanlik va chidamlilikni namoyon etadi. Shu sababli risklarni boshqarish funksiyasini rivojlantirish, zamonaviy tahliliy vositalarni joriy etish va tashkilot miqyosida risk madaniyatini shakllantirish xarajat sifatida emas, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka yo'naltirilgan strategik investitsiya sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – Москва: МКЦ ДИС, 1997. – 464 с.
2. Синки Дж. мл. Управление финансами в коммерческих банках: пер. с англ. 4-го перераб. изд. – М.: Альпина Паблишер, 1994. – 820 с.
3. Жукова Е.Ф. Банковский менеджмент. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 575 с.
4. Кох Т.У. Управление банком: пер. с англ. В 5 т. – Уфа: Спектр, 2003. – Ч. 1. – 112 с.
5. Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. – М.: Консалтбанк, 2003. – 272 с.
6. Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2002. – 21 b.
7. Kotov V.A. Organizatsiya rynka tsennykh bumag. – Toshkent: Moliya, 2007. Butikov I.L. Rynok tsennykh bumag Uzbekistana: problemy formirovaniya i razvitiya. – T.: Konsauditinform Nashr, 2008.
8. Jumayev N.X., Abdurahmonov O.Q. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010. – 160 b.
9. Sattorov O.B. Tijorat banklari likvidiligi ta'minlashni takomillashtirish: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2008. – 21 b.
10. Tojiyev R.R. Tijorat banklari likvidiligi boshqarishning innovatsion strategiyasi ("Agrobank" OATB misolida): Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2011.
11. Liu, H., & Huang, W. (2022). Sustainable Financing and Financial Risk Management of Financial Institutions: Case Study on Chinese Banks. Sustainability. <https://doi.org/10.3390/su14159786>
12. Bhatt, T., Ahmed, N., Iqbal, M., & Ullah, M. (2023). Examining the Determinants of Credit Risk Management and Their Relationship with the Performance of Commercial Banks in Nepal. Journal of Risk and Financial Management. <https://doi.org/10.3390/jrfm16040235>
13. Gutiérrez-López, C., & Abad-González, J. (2020). Sustainability in the Banking Sector: A Predictive Model for the European Banking Union in the Aftermath of the Financial Crisis. Sustainability. <https://doi.org/10.3390/su12062566>
14. Oye, D. (2020). Analysis of Impacts of Operational Risk Management Practices on Banks' Financial Performance: Study of Selected Commercial Banks in Nigeria. International Journal of Finance & Banking Studies, 9, 22–35. <https://doi.org/10.20525/ijfbs.v9i1.634>
15. Kafidipe, A., Uwalomwa, U., Dahunsi, O., & Okeme, F. (2021). Corporate Governance, Risk Management and Financial Performance of Listed Deposit Money Banks in Nigeria. Cogent Business & Management, 8. <https://doi.org/10.1080/23311975.2021.1888679>
16. Nguyen, Q., & Dang, V. (2022). The Impact of Risk Governance Structure on Bank Risk Management Effectiveness: Evidence from ASEAN Countries. Heliyon, 8. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e11192>
17. Ali, M., & Puah, C. (2019). The Internal Determinants of Bank Profitability and Stability. Management Research Review. <https://doi.org/10.1108/mrr-04-2017-0103>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
